
O'zbekiston tumanida navbatdagi "Loyihalar yarmarkasi o'tkaziladi!

O'zbekiston tumanida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar, shuningdek, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan fuqarolarni **ertaga, 30 yanvar kuni Yaypan shahridagi madaniyat markazida bo'lib o'tadigan navbatdagi "Loyihalar yarmarkasi"ga** taklif etamiz!

Yarmarkada yangi loyihalaringiz bilan ishtirok etib, ularni amalga oshirish uchun bank kreditlari olish masalasida yangi imkoniyatlarni qo'lga kiritishingiz mumkin.

"Loyihalar yarmarkasi"da tijorat banklari hamda faoliyati tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tashkilot va muassasalar ishtirok etadi.

"Loyihalar yarmarkasi" **30 yanvar kuni soat 15:00 da** boshlanadi.

2025-01-29 20:45:37